



UO‘K: 811.511.1’373.7+811.161.1’373.7+811.111’373.7:81’42+81’1

O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDAGI FE‘L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ГЛАГОЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ, РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****STRUCTURAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF VERB PHRASEOLOGICAL UNITS IN UZBEK, RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES**

Usmonova Umidaxon Hamzaxon qizi 
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek, rus va ingliz tillarida qo‘llaniladigan fe‘l frazeologik birliklar struktur-semantik va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har uch tilga xos grammatik modellar, ko‘chma ma‘nolar va frazeologik birliklarning madaniyat bilan aloqasi o‘rganiladi. Frazeologizmlar orqali milliy mentalitet, qadriyatlar va timsollar tildagi aks ettirilishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishga, shuningdek frazeologizmlarning milliy va universal xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Abstract

This article presents a comparative analysis of verbal phraseological units used in Uzbek, Russian, and English, focusing on their structural-semantic and linguocultural characteristics. The study examines language-specific grammatical patterns, figurative meanings, and the cultural associations of phraseological expressions. It also explores how idioms reflect national mentality, values, and imagery. The findings shed light on the deep interconnection between language and culture and help to identify both the national and universal features of phraseological units.

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ глагольных фразеологических единиц, употребляемых в узбекском, русском и английском языках, с точки зрения их структурно-семантических и лингвокультурологических особенностей. В исследовании рассматриваются грамматические модели, характерные для каждого из трёх языков, переносные значения, а также взаимосвязь фразеологических единиц с культурой. Особое внимание уделяется отражению национального менталитета, ценностей и образов через фразеологизмы. Результаты исследования способствуют выявлению тесной связи между языком и культурой, а также раскрытию как национальных, так и универсальных характеристик фразеологических единиц.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, fe‘l frazeologizmlari, struktur-semantik tahlil, lingvokulturologiya, milliy xususiyat, madaniy kontekst

Ключевые слова: фразеологические единицы, глагольные фразеологизмы, структурно-семантический анализ, лингвокультурология, национальная специфика, культурный контекст

Key words: phraseological units, verbal idioms, structural-semantic analysis, linguoculturology, national specificity, cultural context.

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida frazeologik birliklarni o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Har bir xalqning tili – uning tafakkuri, ruhiyati, dunyoqarashi va tarixiy-madaniy tajribasining aksidir. Tilda eng chuqur ma‘no va madaniy yukni o‘zida jamlagan qatlamlardan biri bu – frazeologik birliklardir. Frazeologik birliklar, ayniqsa, fe‘l frazeologizmlari inson faoliyati, harakati va holatini barqaror, ko‘pincha ko‘chma ma‘no orqali ifodalaydi. Ular so‘z boyligi tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi va og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llaniladi.

Fe‘l frazeologizmlari ko‘plab tillarda mavjud bo‘lib, ularning tuzilishi, semantikasi va qo‘llanilish konteksti har bir tilning morfologik xususiyatlari hamda madaniy-milliy tafakkuriga bevosita bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘nglini ovlamoq” iborasi nafaqat harakatni, balki nozik

TILSHUNOSLIK

psixologik jarayonni ifodalasa, rus tilidagi “лить крокодиловы слёзы” iborasi yolgʻon rahm-shafqatni ifodalaydi. Ingliz tilidagi “spill the beans” esa sirni oshkor qilishni anglatadi. Bunday birliklar nafaqat lingvistik, balki lingvokulturologik tadqiqotlar uchun ham katta manba hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda tilshunoslikda madaniy kontekstning tahliliga asoslangan yondashuv – lingvokulturologiya alohida yoʻnalish sifatida shakllanib, frazeologik birliklarning tildagi funksiyasini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Ayniqsa, oʻzbek, rus va ingliz tillarida feʼl frazeologizmlarni struktur-semantik va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy oʻrganish, ularning oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali nafaqat tarjima amaliyotida, balki til oʻrgatishda, madaniyatlararo muloqotni yoʻlga qoʻyishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, global integratsiya sharoitida xorijiy tillarni oʻrganish jarayonida soʻz va iboralarni faqat grammatik va leksik jihatdan emas, balki ularning madaniy-maʼnaviy mazmunini anglash zaruriyati ortmoqda. Chunki frazeologizmlar – bu oddiy soʻz birikmalari emas, balki tarix, anʼana, xalq ogʻzaki ijodi va axloqiy meʼyorlarni oʻzida mujassam etgan til birliklaridir. Xususan, turli tizimli tillardagi feʼl frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda lingvokulturologik jihatdan oʻrganish ilmiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishi sanaladi [1; 4; 6]. Oʻzbek, rus va ingliz tillarida feʼl frazeologik birliklar tahlili nafaqat ushbu tillarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashda, balki har bir xalqning madaniyati, tarixi va mentalitetini oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [6; 8]. Frazeologik birliklar, xususan, feʼl frazeologizmlari, oʻz tarkibida tilning koʻp asrlik tarixini, milliy madaniyatni va xalqning dunyoqarashini mujassam etadi [1; 7]. Tadqiqotimiz doirasida oʻzbek, rus va ingliz tillarida mavjud boʻlgan feʼl frazeologizmlarining struktur-semantik xususiyatlari va lingvokulturologik ahamiyatini qiyosiy tahlil qilamiz. Mazkur tahlillar orqali bu tillardagi frazeologizmlarning milliy va universal jihatlarini aniqlashga harakat qilamiz [1; 4; 11].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologik birliklarni tadqiq qilishga bagʻishlangan koʻplab ilmiy asarlar mavjud boʻlib, ularda frazeologizmlarning turli xususiyatlari tahlil qilingan [2; 4; 5]. Frazeologiya nazariyasiga oid dastlabki yondashuvlar V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N.M. Shanskiy kabi olimlar tomonidan taklif etilgan boʻlsa [4; 9; 10], oʻzbek tilida bu yoʻnalishda Sh. Shoabdurahmonov, A. Madvaliyev va boshqa tadqiqotchilar muhim ilmiy ishlarni amalga oshirishgan [8]. B. Joʻrayeva oʻz tadqiqotida xalq maqollari va iboralari oʻrtasidagi aloqani koʻrib chiqib, ularning farqlarini etimologik, maʼnaviy, sintaktik va idiomalashuv jihatlarida aniqlaydi [2]. U, shuningdek, “iboralarning asosini erkin bogʻlanma yoki gap tashkil etadi” degan fikrning shartli ekanini taʼkidlaydi va maqol hamda iboralarning maʼnaviy farqlarini koʻrsatadi. Sh. Rahmatullayev dastlab frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlarini tadqiq qilgan boʻlsa [7], keyinchalik ularning til leksikasi singari tayyor birlik ekanini asoslab berdi. Mustaqillik yillarida frazeologik birliklarning komponent tahlili, birikuvchanlik omillari va ularni qiyosiy aspektda oʻrganish masalalariga eʼtibor kuchaydi [5; 6]. A. Mamatov esa frazeologik birliklarning nutq jarayonidagi oʻziga xos qoʻllanilish xususiyatlarini alohida taʼkidlaydi [5]. Professor S. Karimov esa til taʼlimi va meʼyor masalalariga bagʻishlangan asarida frazeologik birliklarning meʼyoriy jihatlarini muhokama qiladi [3]. Oʻzbek tilidagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini oʻrganish sohasida A.N. Gʻulomovning ishlari alohida eʼtiborga molikdir [1]. Rus tilida A.I. Mokienko va M.I. Starnikovaning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega [6]. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni oʻrganishda esa A.V. Kunin va I. Arnoldning ishlari yetakchi hisoblanadi [4; 11].

NATIJA VA MUHOKAMA

Feʼl frazeologik birliklar — bu tarkibida harakatni anglatuvchi feʼl qatnashadigan va koʻpincha koʻchma maʼnoga ega boʻlgan barqaror soʻz birikmalaridir. Ular turli tillarda turli grammatik modellarda shakllanadi va mazmun jihatdan oʻziga xos madaniy-maʼnaviy yukni oʻzida mujassam etadi. Feʼl frazeologik birliklar har bir tilda anʼanaviy sintaktik modellar asosida tuziladi. Ular quyidagicha guruhlanadi:

1) **Oʻzbek tilida: Feʼl + ot:** *koʻz tikmoq, quloq solmoq, koʻnglini olish*; **Feʼl + ravish:** *chuqur oʻylamoq, jimgina ketmoq.*; **Feʼl + yordamchi ot** (koʻp hollarda sinonimik vosita bilan): *soʻziga quloq solmoq* (yaʼni tinglamoq).

2) **Rus tilida: Глагол + существительное:** *держатъ слово* (soʻzida turmoq), *бросатъ тень* (shubha uygʻotmoq); **Глагол + предлог + существительное:** *взятъ под контроль*

(nazorat ostiga olmoq), *попасть впросак* (noqulay holatga tushmoq); **Фразеологические глаголы с частицами**: *уйти в себя, идти на поводу*.

3) **Ingliz tilida: Verb + noun**: *make a decision, take a risk*; **Phrasal verb (verb + particle/preposition)**: *give up, take off, look into*; **Verb + idiomatic expression**: *beat around the bush, pull someone's leg*.

Struktura jihatidan ingliz tilidagi fe'l frazeologik birliklar ko'pincha **phrasal verbs** — ya'ni old ko'makchi yoki ko'makchilar bilan bog'langan fe'llar shaklida namoyon bo'ladi. Ularning grammatik tuzilishi oddiy bo'lsa-da, semantik jihatdan murakkablik kasb etadi, chunki ko'makchilar (masalan: *off, out, in*) iboraga mutlaqo yangi ma'no yuklaydi.

Fe'l frazeologik birliklar semantik jihatdan juda boy va qatlamli tizimga ega bo'lib, ular ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ma'no bermaydi, balki **ko'chma, mujassam, ramziy** yoki **emotsional** ma'noda ishlatiladi. Semantik tahlil ushbu iboralarning tashqi shakli bilan ichki mazmuni o'rtasidagi tafovutni, ma'no darajalarini va ularning kontekstda qanday rol o'ynashini aniqlashga yordam beradi.

Ko'pchilik fe'l frazeologik birliklar **idiomatik birlik** sifatida ishlatiladi. Ularning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning yuzaki (lug'aviy) ma'nosidan mutlaqo farqlanadi. Masalan, **o'zbek tilida** *ko'z yummoq* — e'tibor bermaslik, befarqlikni bildirsa; **rus tilida** *бросать тень на кого-либо* — kimningdir obro'siga dog' tushurmoq ma'nosini bildiradi; **ingliz tilida** *kick the bucket* — vafot etmoq degan mazmunga ega. Bu iboralarni so'zma-so'z tarjima qilish ma'noni buzadi yoki kulgili holatga olib keladi. Bu frazeologizmlar ko'p hollarda kontekst orqali tushuniladi va mustahkam barqarorlikka ega bo'ladi. Ko'p hollarda fe'l frazeologik birliklar **polisemantik** (ya'ni bir nechta ma'noga ega) bo'lishi mumkin. Bu esa ularni kontekstsiz tushunishni mushkullashtiradi. Masalan: ingliz tilidagi *to break the ice* iborasi: 1) "yangi tanishuvda muloqotni osonlashtirish" ma'nosini bildiradi va 2) "birinchi qadamni qo'yish" ma'nosida ham ishlatiladi.

Frazeologik birliklar, ayniqsa, fe'l frazeologizmlari har bir xalqning **mentaliteti, dunyoqarashi, tarixiy-madaniy tajribasi** va **turmush tarzi** bilan chambarchas bog'liq. Ular faqatgina til birliklari emas, balki milliy ong, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimini ham aks ettiruvchi madaniy kodlardir. Lingvokulturologik yondashuv til birliklarini faqat grammatik va semantik emas, balki **madaniy-ma'naviy kontekstda** tahlil qilishni talab etadi. Fe'l frazeologik birliklar ko'pincha xalqning madaniyatida chuqur ildiz otgan **obrazlar, simvollar** va **metaforalar** orqali shakllanadi. Har bir til o'ziga xos timsollarni yaratgan:

O'zbek tilida: *peşonasiga yozilgan* — taqdir, qismat g'oyasining ifodasi; *ko'z ochib yumguncha* — vaqtning juda qisqaligini bildirish; *tosh otmoq* — ayblamoq, dushmanlik ko'rsatmoq.

Rus tilida: *вешать лапшу на уши* — yolg'on gapirish, chalg'itish (hazilomuz uslubda); *бить баклуши* — hech narsa qilmasdan yurmoq; *идти в ногу со временем* — zamon bilan hamnafas bo'lish.

Ingliz tilida: *break the ice* — muloqotni boshlash (ijtimoiy muhitni iliqlashtirish); *spill the beans* — sirni ochib qo'yish; *hit the sack* — uxlamoq.

Bu misollar har bir xalqning tafakkurida qanday hayotiy tushunchalar va tajribalar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida **taqdir** va **peşona** tushunchalari juda muhim madaniy metafora sifatida ishlatilsa, ingliz tilida **faoliyat va harakat** obrazlari (masalan: *jump the gun, get the ball rolling*) ko'proq uchraydi. Shuni aytib o'tish joyizki, frazeologik birliklar ko'pincha xalqning **ijtimoiy qadriyatlarini, axloqiy normalarini** va **odamlararo munosabatlar** haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Misol uchun: **o'zbek tilida**: *ko'nglini ovlamoq, yuz ko'rmas bo'lish, gapga qolmaslik* kabi iboralar odamlar orasidagi hurmat, sharm-hayo, va ijtimoiy izzat-ikromga urg'u beradi. **Rus tilida**: *не лезь не в своё дело, держать слово, пасть в грязь лицом* — shaxsiy mas'uliyat, va'da bajarish, obro' saqlash g'oyalari bilan bog'liq. **Ingliz tilida**: *mind your own business, keep your word, save face* — shaxsiy hudud, axloqiy poklik va yuzni saqlab qolish qadriyatlarini bildiradi.

XULOSA

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarni struktur-semantik va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ushbu birliklarning nafaqat til tizimidagi grammatik va semantik xususiyatlarini, balki ular orqali namoyon bo'ladigan xalqona tafakkur, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ongni chuqurroq anglash imkonini beradi.

TILSHUNOSLIK

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, har bir til o'ziga xos frazeologik modellar va grammatik konstruksiyalarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi — inson hayoti, hissiyotlari, xatti-harakatlari va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etishdir. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning semantikasi ko'p qatlamli bo'lib, ular konnotativ, emotsional va kontekstual ma'no'larni o'z ichiga oladi.

Lingvokulturologik tahlil esa frazeologizmlarning madaniy ildizlarini ochib beradi: ular xalq og'zaki ijodiyotining mahsuli, milliy obraz va timsollarning til ifodasidir. Har bir ibora ortida butun bir xalqning qadriyatlarini, odatlari va mentaliteti mujassam topgan. Shuning uchun bu frazeologik birliklar o'zaro tarjimada bevosita o'xshash muqobillarga ega bo'lmaydi, ularni tushunish uchun madaniyatlararo sezgirlik zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari til o'rganish, tarjima amaliyoti, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvodidaktika sohalarida keng qo'llanilishi mumkin. Fe'l frazeologik birliklarni o'rganish nafaqat til boyligini oshiradi, balki til orqali millat ruhini anglash, o'zaro tushunishni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologizmlar xalqning madaniyati, mentaliteti va til tizimini o'zida aks ettiradi [1; 4; 6; 7]. Ushbu frazeologizmlar orqali milliylik va universallikni ko'rsatish bilan birga, tillararo va madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini bajaradi [3; 5; 11].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov A.N. *O'zbek tilida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Jo'rayeva B. *O'zbek tilida maqol va iboralar: Strukturaviy-semantik tahlil*. – Samarqand: ILM ziyo, 2012.
3. Karimov S. *Til ta'limi va me'yor: Frazeologik birliklar tizimi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Kunin A.V. *Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka*. – Moskva: Vysshaya shkola, 1996.
5. Mamatov A. *O'zbek tilidagi frazeologizmlarning uslubiy va nutqiy xususiyatlari*. – Buxoro: BDU, 2014.
6. Mokienko V.M., Starnikova M.I. *Russkaya frazeologiya: Teoriya i praktika*. – Sankt-Peterburg: Filologiya, 2005.
7. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 1992.
8. Shoabdurahmonov Sh., Madvaliyev A. *O'zbek tilida frazeologik birliklar*. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
9. Shanskiy N.M. *Frazeologiya sovremennogo russkogo yazyka*. – Moskva: Prosveshcheniye, 1984.
10. Vinogradov V.V. *Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove*. – Moskva: Nauka, 1972.
11. Arnold I.V. *The English Word: Structure and Meaning*. – London: Longman, 1986.
12. Абдурахмонова, Д. (2017). *Ўзбек тилида фразеологизмлар: назарий ва амалий масалалар*. Тошкент: Ўқитувчи нашриёти.
13. Моминов, Ш. (2012). *Ўзбек фразеологияси: назарий асослар ва услубий вазифалар*. Тошкент: Фан.
14. Кунин, А. В. (1996). *Курс фразеологии современного английского языка*. Москва: Высшая школа.
15. Камалова, Ш. (2020). *Рус ва инглиз тилларида фразеологик birliklarнинг лингвомаданий таҳлили*. Филология фанлари номзоди диссертацияси.
16. Cowie, A.P., Mackin, R., & McCaig, I.R. (1983). *Oxford Dictionary of English Idioms*. Oxford: Oxford University Press.
17. Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford: Oxford University Press.
18. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-specific Configurations*. Oxford: Oxford University Press.